

ADABIYOT ORQALI QALBGA YO‘L

Abduraxmonova Sevinch Elbek qizi
Alisher Navoiynomidagi Toshkent Davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi
+ 998 957 83 30
E-mail elbekjuraqulov87@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Chingiz Aytmatovning “Jamila” qissasi asosida Jamila obrazi badiiy-psixologik hamda ijtimoiy-ma’naviy jihatdan tahlil qilinadi. Jamila obrazi orqali ayolning ichki kechinmalari, erkinlikka intilishi, jamiyatdagi qarashlar va unga bo‘lgan munosabat, shuningdek, sevgi va oilaviy burch o‘rtasidagi ziddiyatli holatlar yoritiladi. Qissada o‘sha davr insonlarining taqdiri va hayot tarzi keng va ta’sirchan tarzda aks ettirilgan.

Kalit so‘zlar: Chingiz Aytmatov, Jamila, sevgi, erkinlik, realizm.

Annotation: This article analyzes the character of Jamila in Chingiz Aitmatov’s novella Jamila from both artistic-psychological and socio-spiritual perspectives. Through the image of Jamila, the novella reveals a woman’s inner experiences, her striving for freedom, societal attitudes toward her, as well as the conflicting situations between love and family duty. The story vividly reflects the fate and lifestyle of people of that era.

Keywords: Chingiz Aitmatov, Jamila, love, freedom, realism.

Chingiz Aytmatov nafaqat turkiy adabiyotda, balki jahon adabiyotida ham inson ruhiyati, ichki kechinmalari, axloqiy hamda ma’naviy mas’uliyat masalalarini chuqur va keng ko‘lamda yoritib bergan ijodkor sifatida alohida o‘rin tutadi. Yozuvchining har bir qissa va romanlari o‘quvchini inson ruhiyatining eng nozik qatlamlarini anglashga, hayot va jamiyat oldidagi mas’uliyatni his etishga undaydi.

Chingiz Aytmatov ijodiga murojaat qilar ekanmiz, uning asarlarida zamon va inson taqdiri o‘rtasidagi murakkab bog‘liqlik badiiy obrazlar orqali yorqin ifodalanganiga guvoh bo‘lamiz. Jamila obrazi ham ana shunday yuksak badiiy talqinning yorqin namunasi hisoblanadi. Qissani o‘qish jarayonida o‘sha davr manzaralari beixtiyor ko‘z oldimizda gavdalanadi va o‘quvchi Jamila bilan birga uning dardi, qayg‘usi, beg‘ubor bolalarcha samimiyligini his etadi.

Shu bilan birga, ayrim o‘quvchilar Jamila oilali ayol bo‘la turib, Doniyor ismli begona shaxsga bo‘lgan muhabbati sababli uydan ketishini qoralashi mumkin. Boshqa bir guruh

o‘quvchilar esa, aksincha, uning bu qarorini erkin tanlov sifatida qabul qilib, hurmat bilan baholaydi.

Mazkur qissada adib Jamila obrazi orqali sevgi, sadoqat va insoniylik masalalarini chuqur ochib beradi. Jamila tashqi tomondan quvnoq, mehnatkash, jasur va dadil ayol sifatida tasvirlanadi. U og‘ir qishloq sharoitiga moslashib, erkaklar bilan dalada teng mehnat qiladi. Biroq Jamila obrazining asosiy mohiyati uning tashqi faoliyatida emas, balki ichki ruhiy dunyosida namoyon bo‘ladi.

Jamila itoatkor kelin emas, balki mustaqil fikrlovchi va mustaqil qaror qabul qila oladigan shaxsdir. Uning eriga bo‘lgan hurmati va yuragidagi haqiqiy sevgini tan olish jarayoni murakkab ruhiy kurash orqali kechadi. Jamila o‘z qarorini to‘g‘ri deb biladi va sevgiga to‘la lahzalarni sevikli insoni bilan birga o‘tkazish imkoniyatiga ega bo‘lsa-da, bu baxtni ayriliq yo‘li bilan tanlaydi.

Urush yillarida ayollardan sabr, sukut va itoat talab etilgan bo‘lsa, Jamila bunday jamiyat qoidalarini inkor etadi. Uning bu qarashlari jamiyat tomonidan qoralanadi, ammo muallif Jamila tarafida turadi. Aytish mumkinki, ko‘plab o‘quvchilar ham Jamila tanlovini hurmat bilan qabul qiladi.

Mashhur adabiyotshunos Ozod Sharafiddinov ta’kidlaganidek, Chingiz Aytmatov o‘z qahramonlari orqali zamon va inson qismati o‘rtasidagi murakkab bog‘liqlikni ochib beradi. Jamila obrazi ana shu qarashlarning yorqin ifodasi bo‘la oladi (Sharafiddinov, 1985).

Adabiyotshunos Ibrohim G‘afurov ham Aytmatov qissalaridagi qahramonlarning ruhiy kechinmalari yuksak badiiy tafakkur mahsuli ekanini e’tirof etadi va ularga yuqori baho beradi (G‘afurov, 1979). Darhaqiqat, yozuvchining asarlarini o‘qish jarayonida o‘quvchi o‘zini go‘yo qahramon o‘rnida his etadi va uning ichki holatini qisman bo‘lsa-da anglaydi.

O‘zbek adabiyotshunosligida Jamila obrazi ayol erkinligi va shaxsiy tanlov masalalari bilan bog‘liq holda talqin qilinadi. Tadqiqotchi Qahhorova Jamila obrazini faol ijtimoiy pozitsiyaga ega, jamiyat bosimiga qarshi kurasha oladigan kuchli ayol sifatida baholaydi (Qahhorova, 2014). Ushbu qarash Jamila obrazining zamonaviy ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, Jamila boshqalarning hukmiga bo‘ysunib yashamaydi, balki o‘z taqdirini o‘zi tanlashga jur‘at qilgan jasoratli shaxs sifatida gavdalanadi. U yosh bo‘lishiga qaramay, tirishqoq, irodali va qat’iyatli qizdir. Urush yillaridagi barcha mashaqqatlarni o‘z zimmasiga olib, erta ulg‘ayganiga qaramay, Jamila o‘zligini yo‘qotmaydi.

Asarda keltirilgan quyidagi jumla ham uning ruhiy yetukligini ifodalaydi: “Жамила янгамни чин қалбимдан яхши кўрардим. Бир томони янгам, иккинчи томони мендан биров катта, лекин биз худди тенгкур дўстлардек эдик...”

Jamila ushbu qissada inson erkinligi va ayol shaxsining badiiy timsoli sifatida namoyon bo‘ladi. U o‘z qalbiga sodiq qolgan, baxti uchun kurashishga jur‘at topgan shaxsdir. Aynan shu obraz orqali yozuvchi jamiyat va shaxs o‘rtasidagi ziddiyatni ochib beradi hamda inson tuyg‘ularining ustuvorligini ta’kidlaydi. Jamila obrazi bugungi o‘quvchilar uchun ham estetik, ham ma’naviy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aytmatov, Ch. Jamila. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1988.
2. Sharafiddinov, O. Zamon. Qismat. Qahramon. Toshkent: Yozuvchi, 1985.
3. G‘afurov, I. Badiiy tafakkur va zamon. Toshkent: Fan, 1979.
4. Qahhorova, D. “Chingiz Aytmatov qissalarida ayolobrazi”. O‘zbek tili va adabiyoti jurnali, 2014, №4, 56–60-betlar.
5. Asadov, M. (2023). SIZIF HAQIDA MIF: KAMYU VA XURSHID DO ‘STMUHAMMAD. In Conferences (Vol. 1, No. 1).
6. Рашидова Н. Б. Лексико-семантический анализ арабизмов сферы Образования узбекистана. – 2021.